

## REPUBLICAN CONSUMER MARKET WITH LOCAL PRODUCTS WAYS TO STIMULATE FILLING AND ITS PRINCIPLES

**Kakhorov Abdumalik Bakhtiyarovich**

**master degree**

### ANNOTATION

**From world experience, it is known that the increase in customs rates, firstly, reduces the liberalization of the country's economy, leading to the fact that free market mechanisms do not work full-fledged.**

Natijada, ushbu holat mamlakat iqtisodiyoti orqaga ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, rivojlanayotgan davlatlarda import bojlari stavkalari oshirilishi import tovarlari oqimini kamaytirishga emas, balki o'sha davlatda kontrafakt tovarlar, «kulrang» tizim va korrupsiya avj olishiga olib kelishi mumkin. Uchinchidan, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni tashqi raqobatdan vaqtincha (2-3 yil) himoya qilish, aslida, aynan o'sha korxonalar rivojini shuncha vaqtga to'xtatib qo'yish bilan barobar. Ya'ni, mahalliy ishlab chiqaruvchi raqobat yo'qligidan foydalanib, mahsulotsifatiga, uni yangilashga e'tibor qaratmay, bozorda o'zi belgilagan narxda, zo'r berib ko'proq mahsulot o'tkazib qolishga intiladi. Birgina misol, «GM Uzbekistan» zavodi avtomobillariga talab yuqori bo'lgan paytda, mahsulot sifatiga, mahsulotini takomillashtirishga, tannarxini tushirishga etarli e'tibor qaratilmaganligi tufayli hozirgi kunda ushbu avtomobillar ma'nan eskirdi, avtomobil sifatini oshirish va zamonaviy qulaylik, funktsiyalarni qo'shish esa, tannarxni oshishiga olib keladi. Natijada hosil bo'ladigan narxni esa bozor ko'tarmaydi. Pirovardida, «GM Uzbekistan» Rossiya, Qozog'iston bozorlaridagi o'z o'rnini boshqa raqobatbardosh, arzon, zamonaviy avtomobil ishlab chiqaruvchilariga bo'shatib berdi, amalda. To'rtinchidan, ichki bozorda muqobil tovar yo'qligi tufayli mamlakat aholisi yuqori narxdagi, sifatsiz, ma'nan eski mahsulotlarni sotib olishiga majbur bo'ladi. Oqibatda, aholi turmush darajasi yuqori narxga hamohang tarzda pasayib boradi.

Ya'ni, iste'mol qilinayotgan tovarning narxi qancha yuqorilasa, uni sotib olayotgan aholi shuncha qashshoqlashadi. Beshinchidan, import orqali ishlaydigan «halol» tadbirkorlar uchun «nohalol» raqobat muhiti yaratiladi. Ular «kontrafakt» tovarlar bilan keskin kurash olib borishiga majbur bo'ladi. Bizningcha, mahalliy ishlab chiqaruvchilar davlat tomonidan proteksionistik usulda emas, balki zamonaviy, boshqalarga zararli bo'lmagan iqtisodiy usullarda himoya qilinishi maqsadga muvofiqdir. Jumladan, import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarga davlat tomonidan xomashyo, materiallar sotib olishi uchun yoki aylanma mablag'larini shakllantirishi, zamonaviy energosamarador jihozlar sotib olishi uchun kerakli moliyaviy resurs va subsidiyalar ajratilishi ko'proq samarali natija beradi. Masalan, Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlarida kichik va o'rta korxonalar (kichik va o'rta biznes) davlat tomonidan subsidiyalar orqali qo'llabquvvatlanadilar. Subsidiyalar quyidagi yo'nalishlarga ajratiladi: – tarmoqlarning innovatsion rivojlanishi; – yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, xodimlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish; milliy ishlab chiqaruvchilar tovarlarini targ'ib qilish; – infratuzilmani yaratish, xalqaro bozorda tovarlarni ilgari surish; – mahsulot sifatini yaxshilash; – yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini yangi ilmiy printsiplarga, shuningdek ekologik talablarga muvofiq joriy etish; – texnik yangilashni moliyalashtirish; – texnologik parklarni yaratish va boshqalar. Shuningdek, Xitoyda kichik va o'rta biznes subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida maxsus davlat jamg'armasi tashkil etilgan. Hindistonda esa, hukumat charm sanoati rivojlanishining kompleks dasturini qabul qilgan bo'lib, ishlab chiqarishni kengaytirish (modernizatsiya qilish) subsidiyalar shaklida amalga oshiriladi. Shuningdek, dasturlar sanoat.

Koreyada yuqori texnologik materiallarni ishlab chiqarish uchun sanoat ekotizimlarini rivojlantirish va tijoratlashtirish bo'yicha davlat tomonidan grantlar ajratiladi. Va nihoyat, Turkiyada sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash agentligi (KOSGEB) ishtirokida foizsiz davlat kreditlarini berish tartibi joriy etilgan. Sanab

o‘tilgan mamlakatlar iqtisodiy ko‘rsatkichlari haqida esa, alohida to‘xtalib o‘tirishga hojat yo‘q, fikrimizcha. Shuningdek, globallashuv fonidagi erkin bozor sharoitida zamonaviy, raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishning texnologik jarayonlari bir davlatda boshlanib, bir necha davlatda davom etib, yakuniy bosqichi yana boshqa davlatda yakunlanmoqda. Shunday ekan, ayni paytda biz turli proteksionistik usullar bilan ushbu texnologik jarayon zanjirini uzib qo‘yish orqali emas, balki zamonaviy innovatsion texnologiyalar, shu bilan birga mamlakatimizga intellektual, investitsion resurslar oqimini ortishiga xizmat qiluvchi qulay sharoit yaratishimiz ko‘proq muhimdir. Shu o‘rinda, xorijiy amaliyotga ko‘ra, importni cheklash, tashqi savdoni tarif va notarif boshqarish, qanday salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligi haqida to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Birinchidan, importni cheklash va tashqi savdoni tarif va notarif boshqarish raqobati cheklangan savdo, sanoat va moliya tarmoqlarida ichki monopoliyalarning paydo bo‘lishi va ularni qo‘llab-quvvatlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Ikkinchidan, ushbu jarayon iqtisodiy o‘sishni sekinlashtiradi. Sababi, yuqori tariflar tashqi savdoning pasayishiga olib keladi, bu esa global iqtisodiyot va mamlakat farovonligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish mamlakatning o‘z-o‘zini yakkalanishiga, zamondan orqada qolgan, qimmat ishlab chiqarishning saqlanib qolishiga olib keladi. Mamlakatning turli sohalarda ixtisoslashuvining shakllanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Erkin savdo – har bir mamlakat o‘zining turli xil salohiyatlarini (masalan, geografik) to‘liq anglab etgan holda, eng kam xarajatli va raqobatbardosh sanoatni ajratib olish va rivojlantirish imkoniyatiga ega. Importni cheklash va tashqi savdoni tarif va notarif boshqarish bunga yo‘l qo‘ymaydi, ya‘ni ichki bozorning xilma-xil ehtiyojlarini qondirish uchun resurslarni samarali va samarasiz tarmoqlar o‘rtasida qayta taqsimlash zarur bo‘lib qoladi. Uchinchidan, importni cheklash va tashqi savdoni tarif va notarif boshqarish narxlarning pasayishiga yordam bermaydi. Yuqori tariflar tufayli import qilinadigan mahsulotlar qimmatlashadi. Narxlarning umumiy tarzda, ommaviy tusda o‘sishiga olib keladi. Yuqori tariflar iste‘molchilar mahalliy mahsulotlarni yuqori narxlarda

sotib olishlariga olib keladi, chunki importni cheklash xarajatlarning pasayishiga va shu bilan bir qatorda narxning pasayishiga olib kelmaydi. Pirovardida, narxlarni oshirishdan manfaatdor bo‘lgan milliy monopoliyalar qo‘llab-quvvatlanadi.

### **REFERENCES**

1. Varlamova L. et al. Fuzzy logic traffic management model //InterConf. – 2020.
2. Muazzam A. Image constrict by the wavelet shrink //International Journal of Recent Technology and Engineering. – 2019. – T. 8. – №. 1 S4. – C. 862-864.
3. Artikov T. U., Ibragimov R. S., Artikov M. T. The development of the seismic process in the focal zones of strong earthquakes in Uzbekistan and the long-term forecast of seismic activation //Geology and Mineral resources (Tashkent). – 2009. – No. 1. – p. 23.
4. Zainidinov H. N., Artikova M. A., Fazliddinovich D. Spline method of analysis and processing of seismic signals //Automation and software engineering. – 2017. – №. 1 (19). – Pp. 54-57.